

EKOLOGIYANING BUZILISHING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

*Berdaq Atindaǵı Qaraqalpaq Mámlekетlik Unversiteti
 Biologiya fakulteti
 Ekologiya hám topiraqtanıw kafedrası
 Agrokimyo hám topiraqtanıw
 1-kurs studenti
 Toxtarova Gulzar Paraxatovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologiyaning buzilishing inson salomatligiga ta'siri to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Tabiatni muhofaza qilish, Dunyoqarashni ekologiyalashtirish, Ekologik savodxonlik, ekologik muammolar, Orol bo'yidagi noxush ekologik vaziyat.

Kirish. Tabiat o'ziga xos murakkab tizim bo'lib, inson vajamiyat uning hosilasidir. U tabiat evaziga mavjud va rivojlanadi. Inson o'z ehtiyojlarini tabiat hisobiga qondiradi. U tabiatdan havo, suv, oziqovqat, mineral va yonilg'i xomashyolarini oladi va o'zining hayot faoliyati davomida tabiatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada tabiat uchun yod bo'igan yangi obyektlar vujudga keladi. Bular: shahar va qishloqlar, zavod va fabrikalar, yo'llar, konlar, suv omborlari, qishloq xo'jalik yerlari va boshqalardir. Inson aql-idroki va mehnati tufayli yuzaga kelgan bun day antropogen landshaftlar atrof tabiiy mUhitiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Yer yuzida aholj sonining keskin o'sib borishi, fan va texnikaning shiddatli taraqqiyoti, mamlakatlar hududida tabiiy resurslarning bir tekis tarqalmaganligi mavjud tabiiy resurslardan imkon qadar ko'proq foydalanish va shu yo'l bilanjamiyat taraqqiyotini tezlatishni taqozo qiladi. Natijada tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabat qonunlari buziladi. Bu qonunlarning buzilishi esa ertami-kechmi ekologik inqirozga olib keladi.

Taqiqot maqsadi. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ta'lim berish - bu tabiatni m'uhofaza qilish masalalarning nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'qitish tizimidir. Umumiy va maxsus ekologiya asoslarini bilish har bir zamonaviy kishi uchun zarur bo'lgan madaniyat elementi hisoblanadi. Ekologik ta'lim berishdan maqsad, har bir kishiga kelajakda u qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar, tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatlari to'g'risidagi bilimlarni berishdir. Ekologik ta'limni shakllantirishda tabiatni muhofaza qilish, uning resurslaridan samarali foydalanish prinsiplarini o'zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega. Buning uchun tabiatdan foydalanishda keng ommalashgan «Tabiatdan in'om-ehson kutib o'tirmaymiz, balki undan undirib olamiz» qabilidagi eskicha fikrlashdan, boshqacha qilib aytganda, «Bizning mamlakatimiz bitmas-tuganmas tabiiy boyliklarga ega va ulardan samarali

foydalishga hojat yo'q» degan fikrdan uzoq bo'lismen kerak. (Ekologik savodxonlikka erishish yo'lida insonlarning ekologik bilim darajasini oshirish hamda mamlakat va regionlar bo'yicha atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalar to'g'risida ma'lumotlar berish muhim ahamiyatga ega) Chunki bunday ma'lumotlarga ega bo'lismen, umumiyligi ekologik holatni ko'z oldiga keltirish, tabiatga va insonlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni cheklash va yo'qotish bo'yicha amaliy faoliyatda ishtirok etish uchun zarur. Ekologik ta'linda dunyoqarashni ekologiyalashtirish ham muhim yo'nalishlardandir. Bunga erishishning muhim vositasi insonlarning o'z ustida ishslashlari, tabiat sirlarini o'rganishga va ekologik bilimlarini doimo oshirib borishga bo'igan intilishlaridir. Dunyoqarashni ekologiyalashtirish, ekologiyaga doir fanlarni to'la o'zlashtirish bilan birga, iqtisodiy, siyosiy, texnikaviy, huquqiy va boshqa sohalarning ekologik munosabatlarini bilish orqali amalga oshiriladi.

Tatqiqot natiyjalari. Hozirgi kunga kelib ekologik muammolar inson salomatligiga jiddiy tahdid tug'dirayotir. Global gumanitar forum ma'lumotiga ko'ra, sayyoramizda ro'y berayotgan iqlim o'zgarishi yiliga uch yuz ming insonning umriga zomin bo'lmoqda. Uch yuz million aholi uning salbiy ta'siri ostida hayot kechirmoqda. Bundan iqtisodiyotga ham jiddiy zarar yetayotir. Bunday global muammolar Markaziy Osiyo mintaqasi taraqqiyotiga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Orol bo'yidagi noxush ekologik vaziyat, buning ta'sirida kelib chiqayotgan tabiy tangliklar, cho'llanish muammosi bunga misoldir. Bundan tashqari yer yuzini ifloslanishning eng mudhish omillaridan biri bu nurlanishdir. Uni na ko'rib, na eshtib bo'ladi, na ta'mi, na hidi bor. Biroq uning ta'sirida inson organizimdagi sistrmalarning o'zaro bog'liqligi buzilib, tanani aqil va idrok bilan boshqaruvchi generator-miya esa so'z bilan tushuntirib bo'lmaydigan o'zgarishlarga duch kelmoqda. Natijada bu kichik miqdordagi nurlanishdan aholining ma'lum guruhlari va ayniqsa homilador ayollar homilasiga, o'sish va rivojlanish jarayoni kechayotgan bolalar, immunizim susaygan qariyalar va sog'lig'i zaif insonlar aziyat chekmoqda. Nurlanish bizning organizimizga qon va suyaklarga turli yo'llar (ovqat, suv va havo) bilan kirib butun inson organizmini shikaslantirib, uni bevaqt o'limiga sabab bo'lmoqda. Nurlanishdan tashqari sanoat korxonalaridan chiqayotgan zararli chiqindilar, nitratlar va qishloq xo'jaligida ko'plab ishlatiladigan har xil zaharli qottilar (pestitsid) va mineral o'g'itlardi. Bu zarali moddalar ozuqa mahsulotlari orqali odam organizmiga tushib har xil kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ma'lumki bir mintaqada kasaliklarning tarqalishi shu joyda yashovchi aholi bilan atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq. Masalan, ko'lma suvlari to'planib qolgan joylarda bezgak chivinining yashashi uchun qulay sharoit yaratiladi va shu shu joylarda bezgak kasalligining paydo bo'lismen ehtimoli yuzaga krladi. Afrika uyqu kasaligining paydo bo'lismen uchun esa o'tloqzorlar bo'lismen kerak. Opistroxoz kasalligi daryo yoqalarida yashovchi kishilarda ko'p uchraydi, chunki bu kasallikni keltirib chiqaradigan chuvalchangning oraliq xo'jayini baliq

bo'lib, kasallik odamga baliq go'shti orqali yuqadi. Bundan tashqari aholi orasida ko'p uchraydigan allergik kasalliklarni ham misol qilib olishimiz mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda,sanoat korxonalari chiqindilarini kamaytirish uchun avvalambor hozirgi zamon talabiga mos keladigan ilg'or texnologiyalardan foydalanilgan holda chiqindisiz texnologiyadan foydalanishni keng yo`lga qo`yishimiz lozim.. Zero,chiqindilar masalasi ekologiyadagi muhim muammolardan biri bo'lib, ularni qayta ishslash yoki gigiyenik talablar bo'yicha ishlov berilsa nafaqat iqtisodiy jihatdan foyda ko'ramiz, balki yerni, havoni suvni, oziq – ovqat mahsulotlarining ifloslanishi oldi olinardi, kishilar sog'lig'ini muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega bo'ladi va kelajak avlod uchun ham tabiatimizni o'z musaffoligini saqlagan holda yetkazib bergen bo`lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «Vangi asr avlodi», 2001-y.
2. lioroc.'1oBCKH" B.H., nOllo6elloB H.O. npHpO.LlHble pecypcbl 3eMJll1 H oxpaHa oKpYiKalOllleH Cpe.llbl. M., «npOcBellleHHe», 1985 r.
3. JepHoBa H.M., lieJlooa A.M. 3KOJlOfIUI. M., «npOcBeuleHHe», 1988 r. 7.BopOHUOB It .
4. JIonblpeB M.H., PH60B E.H. 3allll1Tbl 3eMeJlb OT 3P0311H H oxpaHa npHpO.llbl, M., «ArponpOMH3.llat», 1989 r.
5. IOCL B.A. B3altMOOTHOlUeHI1H 06llleCTBa 11 npHpO.llbl, M., «3HaH He», 1989 r.
6. Jabborov N. Ximiya va atrof-muhit. T., «O'qituYchi», I 992-y.